

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 646 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'рни.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari.....	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili.....	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati.....	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi.....	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari.....	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari.....	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari.....	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi.....	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish.....	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds.....	87
Sharbat Abdullaeva , Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies.....	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi.....	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'ri va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish.....	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari.....	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedra dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich ; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi , asistent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	



Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinova , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri	170
Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlantirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinbosari	
Kichik sanoat zonalarini faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashirish ko'rsatkichlari	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbonova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jaloliddinov , mustaqil izlanuvchi	



Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжахон Суюнович , ассистент кафедры	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках	326
Тажимуратов Умид Рузमतovich , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойбергенович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузमत Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан	339
Топилдиев Сохибжон Рахимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilikini oshirish yo'llari	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik	420
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	



Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
Tulkin Imomqulov , PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili.....	483
Saodat Toshaliyeva Toxirovna , PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash.....	497
J. Y. Isakov , i.f.d., prof.	
The Securities Transactions of Commercial Banks.....	502
Iskandar Sulaymonov , assitant teacher	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli.....	507
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi: nazariya, rivojlanish, taklif.....	511
Isroilov Bohodir Ibragimovich , i. f. d., professor; Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , PhD	
Yangi O'zbekiston jamiyat hayotining joni va ruhi ma'naviyatdir.....	516
Davletova Muxabbat Narimanovna , mustaqil izlanuvchi	
Moddiy-texnik resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi.....	519
Halimova Dilora Olimboyevna , mustaqil izlanuvchi	
Хлопково-текстильная промышленность государства.....	523
Халиков Талибжон Луптуллаевич , ассистент кафедры	
Directions of Sustainable Development of Tourism: A Case of top Developed Countries.....	527
Khusniddin Egamnazarov	
Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	534
Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich , siyosiy fanlar doktori (DSc.)	
Xorijiy investitsiyalar oqimini obligatsiyalar orqali oshirish istiqbollari.....	542
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich , kafedra dotsenti v.b.	
Tarmoq va sohalarining ehtiyojiga ko'ra aholi bandligini oshirish imkoniyatlari.....	547
Xayitov Abdimannon Buxarovich , iqtisod fanlari nomzodi, professor v.b.	
Oliy ta'lim muassasalarini boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim tizimidagi islohotlar.....	552
Gafurov Anvar , PhD	
Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'larini xalqaro va mahalliy uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish.....	560
Nurmanov Ulugbek Anorbayevich , iqtisodiyot fanlari doktori	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlik ko'rsatkichlarini prognozlashning zamonaviy modellari: nazariy yondashuv.....	564
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Sug'urtada innovatsiyalar: asosiy dunyo trendlari.....	570
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna , PhD	
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.....	576
S. Qulmatova , PhD	
Foydani soliq objekti sifatida shakllantirish zaruriyati.....	586
Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy turmushi an'analari.....	590
Yuldasheva Gulnora Komilovna , tarix fanlari nomzodi	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samarali tadbirlariga kreativ yondashuv xususida.....	593
Abdusheurov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
Intellectual rivojlanish sari – O'zbekistonda akademik mustaqillik va ilm-fan taraqqiyoti.....	593
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Qimmatli qog'ozlar bozori: mazmuni va rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlarini.....	602
Ibodullayev Abrorjon Axrorjonovich , PhD, Muxtorov Iloxom Avazjon o'g'li , talaba	



Развитие зелёной экономики в современных условиях Республики Узбекистан.....	609
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Effectiveness of Green Construction Practices on Business R&D Investment Outcomes in Project Management.....	615
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Mintaqa va hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy maktablari	620
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Aksiyadorlik jamiyatlariga kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish mexanizmi va uning amaldagi holati tahlili	624
Muydinov Shohruh Najmiddin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholini tadbirkorlikka yo'naltirishda hokim yordamchilari institutini roli va ahamiyati.....	630
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari	634
Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li , tayanch doktorant	
Raqamli iqtisodiyotning shakllanish bosqichlari va rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlarini	640
Raxmonov Lochin To'xtamishovich , mustaqil izlanuvchi	



SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li

TDIU tayanch doktranti

Annotatsiya: Moliya bozorining zamonaviy sharoitida pul mablag'lari xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar yordamida bevosita taqismlanadi, pul mablag'lari iqtisodiyotning real sektorida asosiy ishtirokchilar ko'magida jalb qilinadi va investitsiyalar moliyalashtiriladi. Kompaniya moliya bozorida faqat ana shu sharoitda investitsiya resurslarni shakllantirishi mumkin, bu paytning o'zida faqat ana shu manbalar hisobidan moliyaviy operatsiyalarining ko'pchiligi amalga oshiriladi. Maqolada yuqoridagi jarayonlar hisobiga korxonalar investitsiya cheklolari bilan samarali ta'minlanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Investitsiya siyosati, Iqtisodiyot, moliya bozori, investitsiyalar, talab va taklif, bozor, real sektor, moliyaviy munosabatlar.

Abstract: In the modern conditions of the financial market, funds are distributed directly between economic entities with the help of economic relations, funds are attracted and investments are financed with the support of the main participants in the real sector of the economy. The company can generate investment resources in the financial market only under these conditions, at the same time, most of its financial operations are carried out only at the expense of these resources, in this case, enterprises are provided with investment restrictions. The article analyzes the effective provision of investment restrictions to enterprises due to the above processes.

Key words: Investment policy, Economy, financial market, investments, supply and demand, market, real sector, financial relations.

Аннотация: В современных условиях финансового рынка средства распределяются непосредственно между хозяйствующими субъектами посредством экономических отношений, средства привлекаются и финансируются инвестиции при поддержке основных участников реального сектора экономики. Только при этих условиях компания может генерировать инвестиционные ресурсы на финансовом рынке, в то же время большая часть ее финансовых операций осуществляется только за счет этих ресурсов, в этом случае предприятиям предоставляются инвестиционные ограничения. В статье анализируется эффективное предоставление инвестиционных ограничений предприятиям за счет вышеуказанных процессов.

Ключевые слова: Инвестиционная политика, Экономика, финансовый рынок, инвестиции, спрос и предложение, рынок, реальный сектор, финансовые отношения.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishning eng muhim sharti, uning ichki va tashqi omillar bilan o'zaro barqaror aloqadorligidir. Bunda investitsiyalar mamlakat sanoat tarmog'ining qudratli industrial salohiyatini shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sanoat tarmog'ida investitsiyalar faoliyatining jonlanishi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, iqtisodiy inqirozdan chiqarish, iqtisodiyotning rivojlanishini jadallashtirishga shart-sharoit yaratishning asosi sifatida xizmat qiladi.

Sanoat tarmog'ini qachonki rivojlantirish mumkin, agar sanoat korxonalarida investitsiyalarni boshqarishda barcha jarayonlar o'zaro aloqador bo'lishi va ular ishlab chiqarish amaliyotiga samarali joriy etilgan bo'lsa. Bu yerda investitsiyalarning optimal tarkibini shakllantirishning zarurligi va ularning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan ta'sirini baholash, sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risida gap bormoqda.



Investitsiyalarning asosiy bir jihati – bu sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan investitsiyalar risklarini boshqarish zaruriyatining mavjudligidir. Bu kabi jihatlar investitsiyalarni boshqarishda noadekvat qarorlarni qabul qilishning oldini olish taqozo etiladi, xususan, sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi; investitsiya siyosatining asosiy xususiyatlarini hamda iqtisodiy o'sish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini ilmiy asoslab beradi; investsiya siyosati bilan bog'liq muammolarning ilmiy-uslubiy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mamlakatda investitsiyalar salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishning dolzarbligini belgilaydi; mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish manfaatidan kelib chiqqan holda investitsiya siyosatining takomillashtirilgan yo'nalishlarini asoslab berishi juda muhim, chunki iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va hukumat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan yuqori texnologik salohiyat zarur bo'ladi. Samarali investitsiya siyosatni yuritish ishlab chiqarish sohasidagi inqirozni bartaraf etishga, davlatning iqtisodiy siyosatini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, davlat xarajatlarini moliyalashda qo'shimcha manbalarni izlab topish bilan bog'liq tadqiqotlar alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatining shakllaridan samarali foydalanish mamlakat sanoat tarmog'ini yangidan iqtisodiy isloh qilish va tarkibiy qayta shakllantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashga imkon yaratadi. Demak, investitsiyalar davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradigan muhim vositalardan biri ekan. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning o'rni va ahamiyatini yoritib berish ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan juda zarur.

Kapitalning aylanmasi va tarkibini sifat jihatdan yangilab borish, ishlab chiqarish vositalarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai sifatida klassik iqtisodchi olimlar U. Petti, A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, A. Marshall, B.C. Barda, L.T. Gilyarovskoy, A.V. Idrisov, V.V. Kovalev, Ye.S. Stoyanova, A.V. Frolov, T.S. Xachaturov, A.V. Chayanov, E.Dj. Dolan, E.Kasla, K.R. Makkonnella, S.L. Bryu, G.A. Maxovikova va b.lar tomonidan o'rganilgan.

Biroq investitsiyalar bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilishda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xususiyatlari iqtisodiyotning kapital talab qiluvchi tarmog'i sifatida hisobga olinmagan, investitsiyalar va ular manbalarining yo'nalishlarini iqtisodiy asoslashga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shuningdek, tadqiqot qilinayotgan mavzu bo'yicha boshqaruvning turli shakllari, investitsiyalar hajmi hamda kirim qilingan investitsiyalarning samaradorlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar hisobga olinmagan. Bugungi kunga kelib sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni ta'minlash masalalarini hal etish uchun sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini asoslashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tipik qoidalarining shartlari asosida investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlari quyida batafsil keltirilgan. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlarini modellashtirishda algoritmlar guruhini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki har bir algoritim o'ziga xos hisoblash xususiyatiga ega.

Mavjud tizimni bir nechta guruhga ajratamiz. Birinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining parametrlari o'rtasida bog'liqlik o'rnatiladi va ular o'rtasida hajmiy nisbatlar aniqlanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar tarkibining dastlabki holati va ular aylanmasi va tarkibining guruhlarini tavisflanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining guruhlarini holati rejalashtiriladi. To'rtinchi guruhda investitsiyalar tarkibining o'ziga xos xususiyatlariga baho beriladi.

Investitsiyalar aylanmasi va tarkibini optimallashtirishga doir iqtisodiy-matematik modellar sanoat korxonalarida investitsiyalar aylanmasi va tarkibining harakatidan ko'riladigan maksimal darajadagi foyda olish shartlarining bajarilishiga imkon yaratadi. Iqtisodiy-matematik modellarni yozish uchun esa quyidagi shartli belgilarni kiritamiz:

- **indekslar:** k – sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilish kanallar soni; j – sanoat mahsuloti turlari; p – manbalari bo'yicha investitsiyalar miqdori; γ – tarkibiy guruhlar bo'yicha investitsiyalar miqdori; τ – investitsiyalarning maksimal yoki minimal darajadagi ulushi miqdori ($\tau = 1$ – max: $\tau = 2$ – min); γ – jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalar guruhi ($\gamma = 1$ – jalb qilingan investitsiyalar; $\gamma = 2$ – qarzga olingan investitsiyalar); σ – moddiy, mehnat va boshqa resurslar turlari.
- **koeffitsiyentlar:** L_{jk} – sanoat mahsulotlari hajmining birlik o'lchovidagi narxi; C_{jk} – sanoat mahsulotlari hajmining birlik o'lchovidagi tannarxi; d_{pv}^* – manbalar bo'yicha investitsiyalarning maksimal yoki minimal ($\tau = 1$ – max: $\tau = 2$ – min) darajadagi ulushi; v_{pv} – tarkibiy guruhlar bo'yicha hisobdan chiqariladigan investitsiyalar ulushi; β_{pv} – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar ulushi; Π_{pj} – mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan birlik o'lchovidagi investitsiyalar ta'sirida

yaratiladigan sanoat mahsuloti birligi; r_{spv} – mahsuloti birligiga sarflanadigan moddiy, mehnat va boshqa resurslar me'yorlari; α_k – taqsimot kanallari bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ulushi.

- **erksiz o'zgaruvchilar:** M'_{py} – investitsiyalar hajmi; E_o – moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslar hajmi; Q_j – minimal darajada talab qilinadigan mahsulotlar hajmi.
- **erkli o'zgaruvchilar:** x_j^k – taqsimot kanallari bo'yicha taqsimlanadigan mahsulotlar miqdori; x_p – manbalar bo'yicha investitsiyalar miqdori; x_{py} – tarkibiy guruhlar bo'yicha investitsiyalar hajmi; $\overline{x_{py}}$ – tarkibiy guruhlar bo'yicha korxonaning o'zida qoladigan investitsiyalar miqdori; x_{py}^u – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar miqdori; x_{py}''' – hisobdan chiqariladigan investitsiyalar miqdori; x_{py}'' – jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalar miqdori; x'_{py} – korxonadagi mavjud investitsiyalar miqdori.
- **to'plamlar:** J – sanoat mahsuloti turlari bo'yicha to'plam; K – mahsulot turlarining taqsimot kanallari bo'yicha to'plami; N – investitsiyalarning tarkibiy guruhlar bo'yicha to'plami; P – manbalari bo'yicha investitsiyalarning to'plami; M – moddiy, mehnat va boshqa turdagi resurslar to'plami.

Investitsiyalar aylanmasini optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modelini ularning tarkibini hisobga olgan holda tavsiflaymiz. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibidan maksimal darajada foydal olish investitsiyalarning samaradorligini baholashning asosiy mezon bo'lib, ular quyidagi cheklov shartlari asosida amalga oshiriladi:

$$\sum_{j \in I} \sum_{k \in K} \Pi_j^k x_j^k - \sum_{j \in I} \sum_{k \in K} C_j^k x_j^k \rightarrow \max$$

1. Tarkibiy guruhlari bo'yicha investitsiyalar miqdori maksimal yoki minimal chegaradan ortiqcha bo'lmashligi shart

$$\begin{aligned} x_{\rho\gamma} - d_{\rho\gamma}^{\tau} x_{\rho} &\geq 0, & \tau = 1 \\ x_{\rho\gamma} - d_{\rho\gamma}^{\tau} x_{\rho} &\leq 0, & \tau = 2, \quad \rho \in P, \quad \gamma \in N \end{aligned}$$

2. Alohida manbalari bo'yicha umumiy investitsiyalar miqdori ularning tarkibiy guruhlar bo'yicha investitsiyalar miqdoriga nisbatan ortiqcha bo'lishi shart

$$\sum_{\gamma \in N} x_{\rho\gamma} - x_{\rho} \geq 0, \quad \rho \in P$$

3. Manbalari va tarkibi bo'yicha kelgusi davrga mo'ljallangan investitsiyalar tarkibi jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalarni hisobga olgan holda aniqlanadi

$$\begin{aligned} x'_{\rho\gamma} &\geq M'_{\rho\gamma}, \\ x'_{\rho\gamma} + x''_{\rho\gamma} + \sum_{\gamma=1,2} \rho \in P x^\mu_{\rho\gamma} - x_\rho &= 0, \quad \gamma \in N \end{aligned}$$

4. Hisobdan chiqarilgan va korxonada qoladigan investitsiyalar miqdori investitsiyalarni hisobdan chiqarish me'yorini hisobga olgan holda aniqlanadi

$$\begin{aligned} v_{\rho\gamma}x_{\rho\gamma} - x_{\rho\gamma}''' &\leq 0, & \rho \in P \\ \sum_{\gamma=2,3} (1 - v_{\rho\gamma})x_{\rho\gamma} - \overline{x_{\rho\gamma}} &\leq 0, & \gamma \in N \end{aligned}$$

5. Yangidan yaratiladigan investitsiyalar miqdori kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar ulushi asosida hosil bo'ladi

$$\beta_{\rho\gamma}\overline{x_{\rho\gamma}} - x_{\rho\gamma}^{\mu} \leq 0, \quad \mu = \overline{1,2}, \quad \rho \in P, \quad \gamma \in N$$

6. Foydalaniladigan moddiy, mehnat va boshqa turdagi resurslar miqdori korxonadagi mavjud resurslar miqdoridan ortiqcha bo'lmashligi shart

$$\sum_{\rho \in P} \sum_{\gamma \in N} r_{\sigma\rho\gamma} x_{\rho\gamma} \leq E_{\sigma}, \quad \sigma \in M$$



7. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga qo'yiladigan minimal talablar investitsiyalar hajmidan kam bo'lmashligi shart

$$\sum_{\rho \in P} \sum_{\gamma \in N} \Pi_{\rho\gamma} x_{\rho\gamma} \leq Q_j, \quad j \in J, \quad \gamma \in N$$

Taqsimot kanallari bo'yicha realizatsiya qilinadigan sanoat mahsulotlari hajmi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmidan ortiqcha bo'lmashligi shart

$$\alpha_j^k \Pi_{\rho\gamma} x_{\rho\gamma} - x_j^k \leq 0, \quad \sum_{k \in K} \alpha_j^k = 1, \quad j = 1, \quad \rho \in P$$

- o'zgaruvchilarning manfiy emaslik shartlari


$$x_{\rho\gamma} \geq 0, x_{\rho} \geq 0, x'_{\rho\gamma} \geq 0, \overline{x_{\rho\gamma}} \geq 0, x''_{\rho\gamma} \geq 0, x^{\mu}_{\rho\gamma} \geq 0, x_j^k \geq 0.$$

Tuzilgan modellar va algoritmlar sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanishini samarali boshqarish imkonini beradigan tizimni yaratish uchun asos bo'ladi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llarini asoslab berish uchun modellarni boshqarishda quyidagi parametrlardan foydalaniladi: investitsiyalarning haqiqiy tarkibi; investitsiyalar tarkibining unumdorlik dinamikasi; tarkibiy guruhlar bo'yicha investitsiyalar hajmini mustahkamlashning maksimal yoki minimal darajadagi chegarasi; investitsiyalarning birlik o'lchovidagi narx dinamikasi; investitsiyalarning birlik o'lchovidagi tannarx dinamikasi; shakllangan manbalar guruhi bo'yicha hisobdan chiqarilgan va aylanma natijasida yangidan yaratilgan investitsiyalar ulushi; jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalarni xarakterlovchi ma'lumotlar; korxonadagi mavjud investitsiyalar hajmi; 1 s mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat xarajatlari me'yori va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir model va algoritmdan foydalanish orqali natijaviy (chiqish) parametrlarga ega bo'lamiz. Ularning ba'zi parametrlaridan kirish parametrlari sifatida keyinchalik investitsiya jarayonlarini prognozlash va ularga doir analitik masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Masalaning tizimli tarkibi, axborot va logik aloqadorlik qoidasiga asoslanib, qo'yilgan masalaning yechimini kompyuter yordamida topish uchun tizimning kengaytirilgan sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).



1-rasm: Korxonaning investitsiyalari samaradorligini baholash mexanizmi

1-rasmda quyidagi belgilar qabul qilingan:

- 1 – qaror qabul qiluvchi shaxs;
- 2 – ma'lumotlar bazasi;
- 3 – investitsiyalarga doir retrospektiv ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlar to'plami;
- 4 – investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanishning balans modeli;
- 5 – investitsiya manbalarini hisobga olgan holda investitsiyalar aylanmasining iqtisodiy-matematik modeli;



- 6 – yangidan yaratilgan investitsiyalar hisob-kitob qilish algoritmlari;
- 7 – investitsiyalar hajmini prognozlashning iqtisodiy-matematik modeli;
- 8 – investitsiyalar manbalari guruhi bo'yicha ular tarkibining unumdorligini prognozlash modeli;
- 9 – erishilgan natijalarning muvozanatligini va maqbulligini tekshirish;
- 10 – qabul qilingan qarorlar natijasini tahlil qilish va baholashda modellar va algoritmlardan olingan natijalar;
- 11 – investitsiyalar ta'siri natijasida mahsulot ishlab chiqarish va sotishni prognozlashning iqtisodiy-matematik modeli.

Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha muvozanatga erishilgandan keyin qaror qabul qiluvchi shaxs muqobil variantlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarni qiyosiy baholaydi. Agar muqobil variantlardan biri qaror qabul qiluvchi shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qoniqtirmasa, u holda qaror qabul qiluvchi shaxs ma'lumotlar bazasiga yana takroran murojaat qiladi va modellarda axborotning yangi massivlarining miqdoridan foydalanadi. Ushbu protsedura hisob-kitobning qoniqarli variantiga erishilgunga qadar takrorlanadi. Ma'lumotlar bazasining tarkibi iqtisodiy shart-sharoitlarni hamda har bir investitsiyaning tarkibini hisobga oluvchi kerakli ma'lumotlarni aks ettirish imkoniyatini ko'zda tutadi.

Tuzilgan modellar va algoritmlar "Jizzax" sanoat korxonasining investitsiya resurslari aylanmasi va tarkibini takomillashtirish yo'llarini asoslab berish uchun joriy etildi.

1-jadvalda "Jizzax" korxonasi investitsiyalari aylanmasi va tarkibini hisoblashning modellari va algoritmlarining parametrlarini tavsiflovchi ma'lumotlar ko'rsatilgan. Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonaning yil boshidagi investitsiyalari 5 282 876 mln. so'mni tashkil etgan, shundan 93,3% qisqa muddatli investitsiyalar, 6,70% uzoq muddatli investitsiyalar. Investitsiyalar tarkibi va miqdori qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibiy guruhlar tarkibi va manbalariga nisbatan farqlanadi. Masalan, jalb qilingan investitsiyalar 2 818 290 mln. so'mni tashkil etgan, shundan 88,2% qisqa muddatli investitsiyalar, 11,80% uzoq muddatli investitsiyalar.

1-jadval: 2021-yilda "Jizzax" korxonasining investitsiyalari aylanmasi va tarkibining hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Qisqa muddatli		Uzoq muddatli		Jami
	mln. so'm	%	mln. so'm	%	
Yil boshiga qoldiq	4928923	42,30 93,30	353953	28,25 6,70	5282876 40,94
Kirim (moliyalash manbalari):					
o'z mablag'lar manbai	2485732	21,33 88,20	332558	26,55 11,80	2818290 21,84
jalb qilingan mablag'lar	2582221	22,16 87,70	362159	28,91 12,30	2944380 22,82
qarz mablag'lar	771653	6,62 86,20	123536	9,86 13,80	895189 6,94
boshqa guruhdan o'tkazilgan mablag'lar	19640	0,17 89,00	2449	0,19 11,00	22067 0,17
boshqa mablag'lar	863325	7,41 91,70	78142	6,24 8,30	941167 7,30
Jami	11249942	100 87,18	1654327	100 8,82	12904269 100
Chiqim:					
boshqa guruhga o'tkazilgan mablag'lar	30554	0,65 100,00	0	0,00 0,00	30554 0,41
ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mablag'lar	438443	9,26 87,70	61492	2,30 12,30	499935 12,09
boshqa mablag'lar	19640	0,41 89,00	2427	0,09 11,00	22067 0,30
Jami	6453701	100 87,18	949030	100 12,82	7402731 100
Yil oxiriga qoldiq	4796241	100 87,18	705297	100 12,82	5501538 100
O'rtacha yillik mablag'lar	4700926	36,88 87,18	691281	36,88 12,82	5392207 100



Xuddi shunga o'xshash vaziyat qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar guruhlarining tarkibi va manbalari uchun ham hosil bo'ladi. Masalan, manbariga ko'ra boshqa guruhdan o'tkazilgan investitsiyalar 895 189 mln. so'mni tashkil etgan, shundan 771 653 mln. so'm yoki 86,2% qisqa muddatli investitsiyalar, 123 536 mln. so'm yoki 13,80% uzoq muddatli investitsiyalardir.

XULOSA

Ko'rinib turibdiki, investitsiyalar aylanmasining kirim qismidagi barcha moddalarda qisqa muddatli investitsiyalar ustunlik qiladi. Korxonaning yil oxiridagi investitsiyalari 7 402 731 mln. so'mni tashkil etgan, shundan 6 453 701 mln. so'm yoki 87,18%, qisqa muddatli investitsiyalar, 949 030 mln. so'm yoki 12,82% uzoq muddatli investitsiyalardir.

Qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar tarkibiy guruhlarining tarkibi va ular manbalarining o'zgarish dinamikasi korxonaning yil boshidagi va oxiridagi investitsiyalar o'rtasidagi farqni o'rtacha yillik investitsiyalar aniqlaydi. Korxonaning o'rtacha yillik investitsiyalari miqdori yil oxiridagi investitsiyalar miqdoriga nisbatan kam – 4 796 241, shundan 4 700 926 mln. so'm yoki 87,18%, qisqa muddatli investitsiyalar, 691 281 mln. so'm yoki 12,82% uzoq muddatli investitsiyalardir.

2-jadval: "Jizzax" korxonasida investitsiyalarning muqobil variantlari bo'yicha hisob-kitob natijalari

Ko'rsatkichlar	2021-yil haqiqatda	Modellar bo'yicha hisob-kitob variantlari			2021-yil haqiqatga nisbatan hisob kitob variantlari		
		1	2	3	1	2	3
Sof foyda	363252	377419	387589,9	390495,9	103,9	106,7	107,5
shundan: o'z mablag'lar manbai	39868	41303	41741,8	42180,34	103,6	104,7	105,8
jalb qilingan mablag'lar	169086	175511	174665,8	174327,7	103,8	103,3	103,1
qarz mablag'lar	181438	186700	186336,8	185974	102,9	102,7	102,5
boshqa mablag'lar	24507	25561	26149	26688	104,3	106,7	108,9
Rentabellik darajasi, %	14,2	14,75	15,15	15,27	103,9	106,7	107,5

"Jizzax" korxonasi o'zining barcha vositalaridan foydalangan holda investitsiyalar miqdorini ko'paytirmoqda (2-jadval). Investitsiyalar miqdorining ko'payishiga ishlab chiqarish jarayonini faollashtirish, investitsiyalarning tarkibiy guruhini yaxshilash, investitsiyalarning hajmini ko'paytirish usullari asosida investitsiya tarkibining unumdorligini oshirishga bo'lgan ta'siri natijasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishiladi.

2-jadvalda keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning hisob-kitob natijalari 2021-yildagi haqiqiy ma'lumotlar bilan qiyosiy baholangan. Tavsiya etilgan uslubiy yondoshuvlar, tuzilgan modellar va algoritmlar investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llari ekanligini ko'rsatmoqda. Korxonada investitsiyalarning tarkibiy manbalari va salohiyatidan aql-idrokka asoslangan holda foydalanish, mehnat unumdorligini oshiradigan zahiralarni izlab topish iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank." – Август 2022 г.
2. Salzmänn A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogunlana S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication – 224. –pp 475-485.
3. Salzmänn, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9. –pp 101-114
4. Rustamovich D. B. QUALITY AND SAFETY OF PUBLIC CATERING SERVICES IN UZBEKISTAN //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – C 19-23.
5. Rustamovich, Dehkonov Burhon. "Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan." Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
6. Rustamovich, Dehganov Burkhan. "FINANCING DOMESTIC TOURISTS AND EXPORT OF TOURISM SERVICES." FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA 2.3 (2023): 35-37.
7. Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.
8. <https://www.codingninjas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

